



JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-may*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **7760** tani tashkil etib, Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **96** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **7664** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-may oyida chakana savdo tovar aylanmasi **2953,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **105,2 %** ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **211,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **141,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2741,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,2 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **809,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **100,7 %**) tashkil etdi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	2953,5	105,2	211,8	141,6	2 741,7	103,2
Jizzax sh	709,5	112,2	84,0	112,1	625,5	112,1
<i>tumanlar :</i>	-	-	-	-	-	-
Arnasoy	63,3	71,4	0,7	73,2	62,6	71,4
Baxmal	286,5	103,8	1,6	88,7	284,9	103,9
G'allaorol	309,2	104,7	10,3	98,9	298,9	104,9
Sh Rashidov	316,9	102,9	3,3	2,6 m.	313,6	102,3
Do'stlik	146,5	101,5	0,9	24,2	145,6	103,6
Zomin	344,4	103,4	57,7	119,7	286,7	100,7
Zarbdor	170,1	100,4	0,9	86,9	169,2	100,5
Mirzacho'l	117,4	104,9	0,6	81,2	116,8	105,1
Zafarobod	64,0	100,2	0,6	70,9	63,4	100,8
Paxtakor	230,7	119,1	49,9	12,4 m.	180,8	95,3
Forish	149,9	100,3	0,9	91,0	149,0	100,3
Yangiobod	45,1	109,8	0,4	78,0	44,7	110,2

2023- yilning yanvar-may oyida 2022-yilning yanvar-may oyiga nisbatan viloyatning Paxtakor (**119,1 %**), Jizzax sh (**112,2 %**), Yangiobod (**109,8 %**) va Mirzacho'l (**104,9 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 741,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022–yilning yanvar-may oyiga nisbatan **103,2** % ni tashkil etdi. Jizzax viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **98,2** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-may oyiga nisbatan **41,6** % ga o'sdi va **141,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,2** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Zafarobod (**99,0** %), Arnasoy (**97,6** %) va Sh.Rashidov (**82,0** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,2** % ni tashkil etib, eng katta ulush Paxtakor (**21,6** %), Zomin (**16,7** %) va Jizzax shahri (**11,8**%) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Jizzax viloyati	1996,5	102,9
Jizzax sh	3688,8	109,3
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	1316,2	70,4
Baxmal	1714,3	101,5
G'allaorol	1686,6	102,5
Sh Rashidov	1334,9	100,3
Do'stlik	2122,9	99,8
Zomin	1959,1	101,1
Zarbdor	1832,5	98,1
Mirzacho'l	2149,5	102,9
Zafarobod	1211,7	98,1
Paxtakor	2901,4	116,4
Forish	1545,6	98,8
Yangiobod	1527,9	108,3


2023-yilning yanvar-may holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1996,5** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **102,9** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (**3688,8** ming. so'm), Paxtakor (**2901,4** ming. so'm) va Mirzacho'l (**2149,5** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Jizzax viloyati bo'yicha 2023-yilning yanvar-may oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **809,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-may oyiga nisbatan **100,7** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor(dehqon) va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **380,5** mlrd. so'mni (**120,9%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **429,0** mlrd so'mni tashkil etdi (**107,0** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.










UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	809,5	100,7	380,5	120,9	429,0	107,0
Jizzax sh	144,0	100,2	144,0	127,1	-	-
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,8	3,0	0,8	24,5	-	-
Baxmal	127,2	104,8	81,7	132,5	45,5	103,7
G'allaorol	102,7	105,1	23,2	96,5	79,5	110,2
Sh Rashidov	53,8	109,1	7,8	-	46,0	128,2
Do'stlik	49,3	102,3	4,8	30,1	44,5	127,2
Zomin	113,3	105,6	52,7	133,3	60,5	116,3
Zarbdor	69,1	98,7	17,4	60,0	51,7	99,5
Mirzacho'l	40,7	113,3	11,6	198,4	29,2	113,1
Zafarobod	-	-	-	-	-	-
Paxtakor	55,5	96,7	21,9	134,9	33,7	102,2
Forish	36,2	104,1	12,9	266,1	23,3	96,1
Yangiobod	16,8	129,5	1,5	146,1	15,2	180,1

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning may oyida viloyatning barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **380,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**21,9** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	22,3
	Non va non mahsulotlari	10,3
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	7,0
	Tovuq go'shti	3,8
	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	2,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	2,6
	Tuxum	4,2
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	9,3
	Ziravorlar	4,8
	Tuzlamalar	0,6
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	0,4
	Nooziq-ovqat tovarlari	1,9

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning may oyida, viloyatning barcha tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **96,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **71,6** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **23,6** mlrd. so‘mni, otlar – **1,0** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,2** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	34,6
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	18,7
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	18,3
	Qo‘ylar	19,4
	Otlar	1,0
	Echkilar	4,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,1
	Tovuqlar	0,1
	Quyionlar	0,0
	Qushlar	0,0

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI




2023- yilning yanvar-may oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **116,7** mlrd. soʻmga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **104,0** % ni tashkil qildi. Bunda savdo aylanmasining **97,0** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi.

	Jami mlrd. soʻm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda	Xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	116,7	104,0	113,7	104,0	3,0	105,0
Jizzax sh	44,9	101,0	44,4	101,0	0,5	105,0
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,6	118,0	0,5	121,0	0,1	106,0
Baxmal	7,3	110,0	6,9	111,0	0,4	105,0
Gʻallaorol	8,6	110,0	8,3	110,0	0,3	105,0
Sh Rashidov	27,4	106,0	26,9	106,0	0,5	105,0
Doʻstlik	2,4	94,0	2,3	94,0	0,1	105,0
Zomin	8,4	111,0	8,1	112,0	0,3	106,0
Zarbdor	4,3	113,0	4,2	114,0	0,1	105,0
Mirzachoʻl	1,0	89,0	0,9	88,0	0,1	104,0
Zafarobod	0,9	97,0	0,8	95,0	0,1	105,0
Paxtakor	3,7	94,0	3,5	94,0	0,2	105,0
Forish	6,1	104,0	5,9	104,0	0,2	104,0
Yangiobod	1,1	97,0	1,0	97,0	0,1	104,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1-iyun holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1928,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **102,3** % ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **541,2** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **109,8** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **1303,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **99,5** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Jizzax viloyati	1 928,1	100,0
Jizzax sh	437,4	22,6
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	1,4	0,1
Baxmal	946,2	49,1
G'allaorol	39,1	2,0
Sh Rashidov	361,5	18,7
Do'stlik	1,2	0,1
Zomin	126,5	6,6
Zarbdor	-	-
Mirzacho'l	0,1	-
Zafarobod	-	-
Paxtakor	0,4	-
Forish	12,6	0,7
Yangiobod	1,7	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Baxmal tumani (**946,2** mlrd. so'm), Jizzax shaxri (**437,4** mlrd. so'm) va Sh.Rashidov tumani (**361,5** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1152,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **99,6 %** ni tashkil etdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1040,9** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,2 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **90,3 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



2023-yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1152,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **99,6** % ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **111,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **66,2** %), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi **1040,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,2** %) tashkil etdi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1 152,0	99,6	111,1	66,2	1 040,9	105,2
Jizzax sh	627,8	105,4	32,2	67,7	595,6	108,7
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	3,8	100,8	-	109,9	3,8	100,8
Baxmal	83,2	103,9	70,7	115,7	12,5	65,8
G'allaorol	15,7	91,0	0,2	136,6	15,5	90,7
Sh Rashidov	119,0	102,7	0,1	26,4	118,9	102,9
Do'stlik	36,9	57,7	7,3	20,7	29,6	103,6
Zomin	175,3	106,6	-	28,6	175,3	106,6
Zarbdor	47,3	106,8	-	110,7	47,3	106,8
Mirzacho'l	18,9	80,0	0,1	123,6	18,8	79,9
Zafarobod	9,3	111,3	0,1	661,2	9,2	110,7
Paxtakor	4,3	15,8	0,2	0,7	4,1	93,4
Forish	7,1	83,8	0,2	64,8	6,9	84,3
Yangiobod	3,4	78,9	-	235,7	3,4	78,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 72-221-51-26**